



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5 (2)



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.
2-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdulkarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARIDA MOLIVAVIY HISOBOTLAR TAHLILINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'NALISHLARI	12
Xudoyberdiyev Ulug'bek Axmad o'g'li	
O'ZBEKISTON KOMPANIYALARIDA DIVIDEND SIYOSATI JOZIBADORLIGINI OSHIRISH	16
Shermuxe'dov Akmal Komiljonovich	
РАЗВИТИЕ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ МАЛОГО И СРЕДНЕГО БИЗНЕСА В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ФИНТЕХА И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА	21
Салимова Зиёда Рустамжон қизи	
ELEKTR TARMOQLARI KORXONALARIDA YO'QOTISHLAR HISOBI UCHUN ISHCHI HISOBVARAQLARI TIZIMINI ISHLAB CHIQISH	27
Xojimuro'dov Zuxriddin Shukurullo o'g'li	
RAQAMLI MUHITDA BANK XIZMATLARINI MASOFADAN KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH	32
Azlarova Aziza Axrorovna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SOLIQ ORGANLARI FAOLIYATINI SUN'YI INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	36
Soyibova Matluba Ahmedboyevna	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	41
M.O. Yo'ldoshova	
NARXLARNI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY KONSEPSIYASI SIFATIDA DINAMIK NARX SHAKLLANTIRISH	45
Anvar Deberdiyev	
SOLIQ MA'MURCHILIGINI RAQAMLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMINI QISQARTIRISH YO'LLARI	49
Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich	
STARTAP EKOTIZIMLARINI RAG'BATLANTIRISHNING SOLIQ MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: GLOBAL MUAMMOLAR VA HUDUDIY IMKONIYATLAR	55
Ishimova Mohinur Absalomovna	
UMUMIY OVQATLANISH TIZIMIDA B2B MARKETINGINI JORIY ETISH. (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	61
Zakirova Gulnoza Qu'dratovna, Aliyeva Gulnora Ildarovna	
TIBBIYOT TASHKIOTLARIDA NOMOLIVAVIY AKTIVLAR HISOBI AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	67
Iskanov Xoljigit Nurkosimovich	
RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISH MARKAZIDA ICHKI AUDIT TIZIMINI TASHIL ETISH AMALIYOTI	73
Suyunov Yorqin Bekmuro'dovich, Nazarov Ubaydulla Abdumannapovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	79
Yuldashev Akmal Kiyomovich	
TOG'-KON KORXONALARIDA TEXNOLOGIK TIZIM HOLATINI BAHOLASH VA IQTISODIY SAMARADORLIK ZAXIRALARINI ANIQLASH	83
Abirova Nargizabonu	
YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI VA ULARNING MILLIY RIVOJLANISHI	88
Turayev Abduvohid Kuldashevich	



IQTISODIYOTNING INNOVATSION TARAQQIYOTI SHAROITIDA MEHNAT RESURLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHDAGI XORIJ MAMLAKATLAR TAÐRIBASI.....	93
<i>Artiqova O'g'iljon Zafar qizi</i>	



IQTISODIYOTNING INNOVATSION TARAQQIYOTI SHAROITIDA MEHNAT RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHDAGI XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI



Artiqova O'g'iljon Zafar qizi

Ma'mun Universiteti

Buxgalteriya hisobi kafedrası o'qituvchisi

E-mail: artiqova0109@mamunedu.uz

ORCID: 0009-0006-5879-9259

Annotatsiya. Ushbu maqolada innovatsion iqtisodiy taraqqiyot sharoitida mehnat resurslaridan samarali foydalanish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya, Singapur va Xitoy tajribasi qiyosiy jihatdan o'rganilib, Sanoat 4.0, sun'iy intellekt, avtomatlashtirish, gig iqtisodiyoti hamda raqamli transformatsiyaning mehnat bozoriga ta'siri tahlil etildi. Future of Jobs Report 2025 va McKinsey & Company hisobotlariga asoslangan statistik hamda analitik tahlillar natijasida Germaniyaning dual ta'lim modeli, AQShning venture kapital tizimi, Singapur va Janubiy Koreyaning innovatsion klasterlari hamda Xitoyning Made in China 2025 strategiyasi samarali modellar sifatida baholandi. Tadqiqot natijalari O'zbekiston mehnat bozorida malaka yetishmovchiligi, hududiy nomutanosiblik va raqamli ko'nikmalarning past darajasi kabi muammolar mavjudligini ko'rsatdi. Xulosa sifatida, xorijiy tajribani milliy sharoitlarga moslashtirish orqali inson kapitalini rivojlantirish O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror innovatsion o'sishini ta'minlashning muhim omili ekanligi asoslandi.

Kalit so'zlar: innovatsion iqtisodiyot, mehnat resurslari, inson kapitali, xorij tajribasi, Sanoat 4.0, sun'iy intellekt, dual ta'lim, raqamli transformatsiya, gig iqtisodiyoti, O'zbekiston–2030.

Abstract. This article analyzes the issues of effective utilization of labor resources under conditions of innovative economic development. The study comparatively examines the experiences of United States, Germany, South Korea, Singapore, and China, focusing on the impact of Industry 4.0, artificial intelligence, automation, the gig economy, and digital transformation on the labor market. Based on statistical and analytical assessments derived from the Future of Jobs Report 2025 and McKinsey & Company reports, Germany's dual education model, the U.S. venture capital system, the innovation clusters of Singapore and South Korea, and China's Made in China 2025 strategy were identified as the most effective models. The research revealed major challenges in Uzbekistan's labor market, including skills shortages, regional imbalances, and low levels of digital competencies. In conclusion, adapting foreign experience to national conditions and developing human capital are considered essential factors for ensuring sustainable innovative growth in Uzbekistan's economy.

Key words: innovative economy, labor resources, human capital, foreign experience, Industry 4.0, artificial intelligence, dual education, digital transformation, gig economy, Uzbekistan–2030.

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы эффективного использования трудовых ресурсов в условиях инновационного экономического развития. В ходе исследования был проведён сравнительный анализ опыта США, Германия, Южная Корея, Сингапур и Китай, а также изучено влияние Индустрия 4.0, искусственного интеллекта, автоматизации, gig-экономики и цифровой трансформации на рынок труда. На основе статистического и аналитического анализа, выполненного по материалам Future of Jobs Report 2025 и McKinsey & Company, наиболее эффективными моделями были признаны дуальная система образования Германии, венчурная система США, инновационные кластеры Сингапура и Южной Кореи, а также стратегия Китая Made in China 2025. Исследование выявило такие ключевые проблемы рынка труда Узбекистана, как дефицит квалифицированных кадров, территориальные диспропорции и низкий уровень цифровых навыков. В заключение отмечается, что адаптация зарубежного опыта к национальным условиям и развитие человеческого капитала являются важным фактором обеспечения устойчивого инновационного роста экономики Узбекистана.

Ключевые слова: инновационная экономика, трудовые ресурсы, человеческий капитал, зарубежный опыт, Индустрия 4.0, искусственный интеллект, дуальное образование, цифровая трансформация, gig-экономика, Узбекистан–2030.



KIRISH

Zamonaviy global iqtisodiyotda innovatsion taraqqiyot mehnat resurslaridan samarali foydalanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo'lmoqda. Sanoat 4.0, sun'iy intellekt (SI), avtomatlashtirish, raqamli transformatsiya va yashil iqtisodiyotga o'tish kabi tendensiyalar mehnat bozorini tubdan o'zgartirmoqda. Future of Jobs Report 2025ga ko'ra, kelgusi besh yilda texnologik ko'nikmalar — SI va big data, kiber tahdidlardan himoyalash hamda texnologik savodxonlik — eng tez o'sadigan talablar qatoriga kiradi. Shu bilan birga, kreativ fikrlash, moslashuvchanlik, chidamlilik va umrbod o'rganish kabi insoniy ko'nikmalar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda [1–2].

SI va avtomatlashtirish takroriy vazifalarni bajarishda ish vaqtining 30 foizigacha qismini egallashi mumkin bo'lsa-da (McKinsey & Company bahosi), bu jarayon yangi ish o'rinlarini yaratadi hamda mehnat unumdorligini oshiradi. SI ta'siri yuqori bo'lgan sohalarda ishchi boshiga to'g'ri keladigan daromad o'sishi uch baravar yuqori bo'lib, ish beruvchilar inson kapitalini rivojlantirishga ko'proq e'tibor qaratmoqda. Gig iqtisodiyoti, masofaviy ish, platforma asosidagi bandlik va yashil innovatsiyalar mehnat resurslarini boshqarishning yangi modellarini shakllantirmoqda. Rivojlangan mamlakatlar — AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya, Singapur va Xitoy — ushbu tendensiyalardan samarali foydalanib, mehnat resurslarini innovatsion iqtisodiyot talablariga moslashtirish bo'yicha muvaffaqiyatli tajribaga ega [3].

Mavzuning dolzarbligi shundaki, O'zbekiston Respublikasi ham innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirmoqda. Jumladan, "O'zbekiston–2030" strategiyasi, raqamli iqtisodiyot va yashil o'sish yo'nalishlari bu boradagi ustuvor vazifalarni belgilab bermoqda. Biroq aholining yoshligi, mehnat resurslarining yuqori salohiyati bilan bir qatorda malaka yetishmovchiligi, demografik bosim va global raqobat muammolari ham mavjud. Xorijiy tajribani o'rganish, xususan, Germaniyaning dual ta'lim tizimi, Singapur va Janubiy Koreyaning innovatsion klasterlari hamda AQShning venture kapital va startaplarga asoslangan yondashuvi, O'zbekistonda mehnat resurslaridan samarali foydalanish, yangi ish o'rinlarini yaratish, mehnat unumdorligini oshirish va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Global tendensiyalar — geoiqtisodiy parchalanish, demografik o'zgarishlar va SI ta'siri — fonida ushbu tajribalarni milliy sharoitlarga moslashtirish mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshiradi hamda Barqaror rivojlanish maqsadlariga, jumladan bandlik va inson kapitalini rivojlantirishga erishishga xizmat qiladi [4–6].

Tadqiqot obyekti innovatsion iqtisodiy taraqqiyot sharoitida xorijiy mamlakatlarda, xususan, AQSh, Yevropa Ittifoqi davlatlari hamda Osiyo mamlakatlari — Janubiy Koreya, Singapur, Xitoy va boshqalarda — mehnat resurslaridan samarali foydalanish jarayonlaridan iborat. Tadqiqot predmeti esa mehnat resurslarini boshqarishning institutsional, iqtisodiy va innovatsion mexanizmlarini, shu jumladan ta'lim tizimi, malaka rivojlantirish, mehnat bozori siyosati, raqamli va yashil transformatsiya vositalari hamda ularning samaradorligini qamrab oladi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi innovatsion iqtisodiyot sharoitida xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida mehnat resurslaridan samarali foydalanishning nazariy va amaliy asoslarini o'rganish hamda O'zbekiston uchun moslashtirilgan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- innovatsion taraqqiyotning mehnat resurslariga ta'sirini nazariy jihatdan tahlil qilish va zamonaviy global tendensiyalarni, jumladan sun'iy intellekt, avtomatlashtirish hamda gig iqtisodiyotini aniqlash;
- rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda, xususan Germaniya, Singapur, Janubiy Koreya, Xitoy va AQShda mehnat resurslarini boshqarish tajribasini solishtirma tahlil qilish;
- mehnat unumdorligini oshirish, malaka rivojlantirish va bandlikni ta'minlashdagi muvaffaqiyatli mexanizmlarni, jumladan dual ta'lim, innovatsion klasterlar hamda davlat-xususiy sheriklik tizimlarini aniqlash;
- O'zbekiston mehnat bozori holatini baholash hamda xorijiy tajribani milliy sharoitlarga moslashtirish imkoniyatlarini ko'rib chiqish;
- ilmiy-amaliy tavsiyalar va model takliflarini ishlab chiqish.

Ushbu tadqiqot innovatsion iqtisodiyotda inson kapitalining hal qiluvchi rolini ta'kidlaydi hamda O'zbekiston kabi mamlakatlar uchun muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki xorijiy tajribani chuqur o'rganish orqali mehnat resurslaridan samarali foydalanish milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishiga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda innovatsion iqtisodiy taraqqiyot sharoitida mehnat resurslaridan samarali foydalanish masalasi Sanoat 4.0, raqamli transformatsiya, sun'iy intellekt (SI), avtomatlashtirish va inson kapitalini rivojlantirish kontekstida faol tadqiq etilmoqda. So'nggi besh yil (2021–2026) davomida nufuzli ilmiy platformalar va nashrlarda, jumladan ScienceDirect, Springer va Elsevier bazalarida chop etilgan tadqiqotlar texnologik o'zgarishlarning mehnat bozori, unumdorlik va malaka talablariga ta'sirini chuqur tahlil qilmoqda [7].



Sanoat 4.0 va mehnat unumdorligi: Sarbu (2022) Sanoat 4.0 texnologiyalarining mahsulot innovatsiyalari hamda mehnat unumdorligiga ijobiy ta'sirini ko'rsatgan. Italiya kichik va o'rta biznes subyektlarida o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, texnologiyalarni qabul qilish mehnat unumdorligini o'rtacha 7 foizga oshirishi aniqlangan. Biroq ushbu ta'sir vaqt o'tishi bilan pasayishi mumkinligi qayd etilgan. Samarasizlikni kamaytirish, yangi bilimlarni yaratish hamda ichki va tashqi hamkorlik mexanizmlari asosiy omillar sifatida belgilangan [8].

Zhu va hammualliflar (2024) Xitoyda intellektual ishlab chiqarishning (IM) mehnat unumdorligiga ijobiy ta'sirini tasdiqlagan. Inson kapitali sifati yuqori, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (R&D) intensivligi kuchli hamda raqobatbardosh sanoat korxonalarida ushbu ta'sir yanada yuqori bo'lgani aniqlangan [9].

Ijtimoiy barqarorlik va malaka bo'shliqlari: Grybauskas va hammualliflar (2022) Sanoat 4.0 ning ijtimoiy barqarorlikka ta'sirini tizimli ravishda o'rganib, mehnat bozorini transformatsion o'zgarishlarning markaziy elementi sifatida baholagan. Tadqiqotda malaka bo'shliqlari, ish o'rinlarining o'zgarishi hamda kreativlik va moslashuvchanlik kabi yangi ko'nikmalar asosiy muammolar qatorida ko'rsatilgan [10].

Rikala va hammualliflar (2024) esa Sanoat 4.0 sharoitida malaka bo'shliqlarini o'lchash va baholashga oid tadqiqotlar yetarli emasligini ta'kidlab, ko'p tomonlama yondashuv zarurligini asoslab bergan [11].

Taqqoslama siyosat tahlillari: Kuo (2019) Xitoy, Germaniya va AQShning Sanoat 4.0 siyosatini qiyosiy tahlil qilgan. Tadqiqotda Germaniyaning dual ta'lim tizimi, Singapur va Janubiy Koreyaning innovatsion klasterlari hamda AQShning venture kapital va startap tizimi samarali modellar sifatida ajralib turishi qayd etilgan [12].

Fraske (2022) esa Sanoat 4.0 ning geografik oqibatlarini, jumladan qiymat zanjirlari, innovatsion klasterlar, mintaqaviy moslashuv, innovatsion ekotizimlar va mehnat bozori transformatsiyasini tahlil qilgan [13].

Future of Jobs Report (2023–2025) SI, big data va insoniy ko'nikmalar — moslashuvchanlik, kreativ fikrlash va umrbod o'rganish — talabning ortishini prognoz qilgan. McKinsey & Company va boshqa tahliliy hisobotlarda avtomatlashtirish takroriy vazifalarning 30 foizigacha qismini egallashi mumkinligi, biroq shu bilan birga yangi ish o'rinlari yaratilishi ham ta'kidlangan [14].

Gig iqtisodiyoti, yashil transformatsiya va barqarorlik: So'nggi tadqiqotlarda (2023–2025) Circular Economy va Sanoat 4.0 integratsiyasi masalalari keng o'rganilmoqda. Ijtimoiy barqarorlik, inson markazli yondashuv (Sanoat 5.0) hamda malaka rivojlantirish ustuvor yo'nalishlar sifatida baholanmoqda [15].

Mahalliy olimlar ushbu mavzuni milliy kontekstda, xususan "O'zbekiston–2030" strategiyasi, raqamli iqtisodiyot va inson kapitalini rivojlantirish nuqtayi nazaridan tadqiq etmoqda.

Qo'chqorov G.F. (2026) innovatsion o'tish jarayonida mehnat resurslari sifatini oshirish yo'nalishlarini tadqiq qilgan. Muallif milliy iqtisodiyotda sifat ko'rsatkichlariga talab ortib borayotgani hamda ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasining muhimligini ta'kidlaydi [16].

Abdullayeva F. (2024) innovatsion iqtisodiyot sharoitida inson kapitali va mehnat resurslaridan samarali foydalanish munosabatlarini tahlil qilgan. Jahon banki ma'lumotlariga asoslangan holda inson kapitalining milliy boylidagi ulushi 55 foizga yetgani va "O'zbekiston–2030" strategiyasida ta'lim hamda ishlab chiqarish integratsiyasining muhimligi asoslab berilgan. Tadqiqotda ta'limdagi nomutanosiblik, malaka yetishmovchiligi va hududiy tafovutlar asosiy muammolar sifatida ko'rsatilgan. Shuningdek, hududlarda inson kapitalini baholash uchun besh darajali matritsa taklif etilgan [17].

Artiqova O'.Z. va Qodirova N. (2025) "Raqamli iqtisodiyot sharoitida aholining iqtisodiy savodxonligini oshirishning xorij tajribasi" maqolasida innovatsion iqtisodiyotda mehnat resurslaridan samarali foydalanishning muhim sharti sifatida iqtisodiy va raqamli savodxonlikni oshirish masalasini tahlil qilgan. Mazkur tadqiqot xorij tajribasini O'zbekiston mehnat resurslarini innovatsion rivojlanishga moslashtirish uchun muhim amaliy asos sifatida baholanadi [18].

Mahalliy tadqiqotlar asosan normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, dual ta'lim tizimini joriy etish hamda hududiy mehnat resurslarini optimallashtirish masalalariga qaratilgan. Biroq mavjud xorijiy tadqiqotlar ko'proq texnologik ta'sir — mehnat unumdorligi va malaka bo'shliqlari — hamda ayrim mamlakatlar tajribasini tahlil qilish bilan chegaralanadi. Mahalliy tadqiqotlarda esa solishtirma tahlil yetarli darajada chuqurlashtirilmagan va O'zbekiston uchun moslashtirilgan kompleks mexanizmlar yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Tadqiqotning o'ziga xosligi: Ushbu tadqiqotning o'ziga xos jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- xorijiy tajribani, jumladan Germaniya, Singapur, Janubiy Koreya, Xitoy va AQSh tajribasini O'zbekistonning demografik salohiyati, yosh aholisi va raqamli transformatsiya bosqichiga moslashtirilgan holda chuqur qiyosiy tahlil qilish;

- mehnat resurslarini boshqarishning institutsional, iqtisodiy va innovatsion mexanizmlarini, jumladan dual ta'lim, raqamli platformalar hamda yashil ko'nikmalarni birlashtirgan kompleks modelni taklif etish;

- global tendensiyalar — SI, gig iqtisodiyoti va Sanoat 5.0 — fonida O'zbekiston mehnat bozorining dolzarb muammolarini, xususan malaka yetishmovchiligi, hududiy nomutanosiblik va barqaror bandlik masalalarini hal qilishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

- inson kapitalini innovatsion rivojlanishning markaziy omili sifatida ko'rib chiqish hamda uni Barqaror rivojlanish maqsadlari va milliy strategiyalar bilan uzviy bog'lash.



Mazkur yondashuv mavjud ilmiy adabiyotlardagi bo'shliqlarni to'ldiradi va O'zbekiston uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lgan strategik tavsiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi. Tadqiqot xorijiy tajribani nafaqat tahlil qiladi, balki uni milliy sharoitlarga moslashtirish orqali innovatsion iqtisodiyotda mehnat resurslaridan samarali foydalanishning yangi modelini ham taklif etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot innovatsion iqtisodiy taraqqiyot sharoitida mehnat resurslaridan samarali foydalanishni tahlil qilish hamda xorijiy tajribani O'zbekiston sharoitlariga moslashtirish maqsadida kompleks metodologik yondashuv asosida amalga oshirilgan.

Qiyosiy tahlil (markaziy metod) — AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya, Singapur va Xitoy tajribalarini ta'lim tizimi, mehnat bozori siyosati, innovatsion klasterlar, raqamli transformatsiya hamda inson kapitali ko'rsatkichlari bo'yicha solishtirish orqali eng samarali mexanizmlarni aniqlash va ularni O'zbekiston sharoitlariga moslashtirish imkoniyatlarini baholashga qaratilgan.

Tizimli yondashuv — mehnat resurslarini innovatsion iqtisodiyotning ajralmas tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqishga asoslangan.

Statistik-analitik tahlil — Future of Jobs Report (2023–2025), McKinsey & Company, OECD hamda Jahon banki ma'lumotlaridan foydalanilgan holda mehnat unumdorligi va malaka talablarini kvantitativ jihatdan baholashni nazarda tutadi.

Kontent tahlili — 2021–2026-yillarda Scopus va Web of Science ilmiy bazalarida chop etilgan maqolalar hamda xalqaro hisobotlarni tahlil qilish orqali amalga oshirilgan.

Induksiya va deduksiya metodlari — nazariy xulosalarni umumlashtirish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda qo'llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu tadqiqot innovatsion iqtisodiy taraqqiyot sharoitida mehnat resurslaridan samarali foydalanishni tahlil qilish hamda xorijiy mamlakatlar — AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya, Singapur va Xitoy — tajribasini solishtirish orqali O'zbekiston uchun mos modellar ishlab chiqishga qaratilgan. Qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, statistik-analitik va kontent tahlili natijalari shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt (SI), avtomatlashtirish, gig iqtisodiyoti, raqamli transformatsiya hamda yashil iqtisodiyot mehnat bozorini tubdan o'zgartirmoqda.

Statistik va analitik tahlillar natijalariga ko'ra, World Economic Forumning Future of Jobs Report 2025 hisobotida qayd etilishicha, 2025–2030-yillarda texnologik o'zgarishlar natijasida 170 million yangi ish o'rni yaratilishi, 92 million ish o'rni esa qisqarishi prognoz qilinmoqda. Sun'iy intellekt va big data eng tez rivojlanayotgan ko'nikmalar qatoriga kiradi. Ish beruvchilarning 66 foizi SI mutaxassislarini ishga jalb qilishni, 40 foizi esa avtomatlashtirish orqali ishchi kuchi sonini qisqartirishni rejalashtirmoqda [1].

McKinsey & Companyning McKinsey Global Institute Reports ma'lumotlariga ko'ra, generativ sun'iy intellekt korporativ foydalanish jarayonida yiliga 2,6–4,4 trillion AQSh dollari miqdorida qo'shimcha iqtisodiy qiymat yaratishi mumkin [3].

Qiyosiy tahlil natijalariga ko'ra, mamlakatlar kesimida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval).

1-jadval. Mamlakatlar kesimida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi¹

Mamlakat	Ta'lim modeli	Innovatsion daraja	Mehnat unumdorligi (GDP/soat, AQSh dollari, 2025)	Asosiy ustunlik
AQSh	Startup va venture kapital	Yuqori	81,8	Innovatsion ekotizim va AI integratsiyasi
Germaniya	Dual ta'lim	Yuqori	80,5	Amaliy ko'nikmalar va Sanoat 4.0
Janubiy Koreya	Innovatsion klasterlar	Yuqori	~55	Tez texnologik moslashuv
Singapur	Smart Nation raqamli strategiyasi	Yuqori	Yuqori (~74–100)	Raqamli infratuzilma va inson kapitali
Xitoy	"Made in China 2025"	Yuqori o'sish	19,8	Raqamli sanoat va masshtabli investitsiyalar

1 [19][20]manbalarga tayangan holda muallif ishlanmasi



Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Germaniyaning dual ta'lim modeli mehnat unumdorligini barqaror darajada saqlashga xizmat qilmoqda, AQShning startup ekotizimi esa yangi ish o'rinlarini yaratishda yetakchi o'rin egallaydi. Singapur va Janubiy Koreyaning innovatsion klasterlari raqamli ko'nikmalarni jadal rivojlantirishga imkon bermoqda. Shu bilan birga, Xitoy Made in China 2025 strategiyasi orqali keng ko'lamli raqamli transformatsiyani amalga oshirmoqda (2-jadval).

2-jadval. Innovatsion omillarning mehnat bozoriga ta'siri²


Omil	Ta'sir turi	Ijoiy natijalar	Salbiy oqibatlar
Sun'iy intellekt (SI)	Avtomatlashtirish	Unumdorlik +15–25% (McKinsey, 2025)	40% ish o'rinlarini qisqartirish xavfi
Avtomatlashtirish	Texnologik o'zgarish	Yangi texnologik ish o'rinlari	Takroriy vazifalar yo'qolishi
Gig iqtisodiyoti	Moslashuvchan bandlik	Platforma orqali bandlik o'sishi	Ijtimoiy himoya yetishmovchiligi
Raqamli transformatsiya	Infratuzilma	Raqamli ko'nikmalar talabi +39% (WEF, 2025)	Malaka bo'shliqlari kuchayishi
Yashil iqtisodiyot	Barqaror o'sish	Yangi "yashil" ish o'rinlari	An'anaviy sanoatda qisqarish

Ushbu jadval innovatsion iqtisodiyotning asosiy omillari — sun'iy intellekt, avtomatlashtirish, gig iqtisodiyoti, raqamli transformatsiya va yashil iqtisodiyotning — mehnat bozoriga ko'rsatadigan ijobiy hamda salbiy ta'sirini tizimli ravishda taqqoslaydi. World Economic Forumning Future of Jobs Report 2025 va McKinsey & Companyning McKinsey Global Institute Reports ma'lumotlariga asoslangan tahlillar shuni ko'rsatadiki, texnologik omillar mehnat unumdorligini sezilarli darajada oshirish salohiyatiga ega bo'lsa-da, ayni paytda malaka bo'shliqlari va ijtimoiy xavflarning kuchayishiga ham sabab bo'lmoqda.

Masalan, sun'iy intellekt mehnat unumdorligini 15–25 foizgacha oshirishi mumkin, biroq bir vaqtning o'zida ayrim ish o'rinlarining 40 foizigacha qisqarish xavfini yuzaga keltiradi. Tizimli yondashuv natijalari shuni tasdiqlaydiki, innovatsion omillarning ijobiy ta'siridan maksimal darajada foydalanish uchun inson kapitalini rivojlantirish hamda moslashuvchan mehnat siyosatini amalga oshirish zarur hisoblanadi.

Mazkur jadval xorijiy tajribani O'zbekiston sharoitlariga moslashtirishda muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi (1-rasm).

Mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar (WEF Future of Jobs Report 2025)



1-rasm. Mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar³


Ushbu diagramma innovatsion iqtisodiyot sharoitida mehnat unumdorligini shakllantiruvchi asosiy omillarni tizimli ravishda aks ettiradi. World Economic Forumning Future of Jobs Report 2025 ma'lumotlariga ko'ra, sun'iy intellekt (SI) va axborotni qayta ishlash texnologiyalari 2030-yilga borib ish beruvchilarning 86 foizi tomonidan eng kuchli omil sifatida baholangan. Raqamli kirishni kengaytirish 60 foizni, robototexnika va avtomatlashtirish esa 58 foizni tashkil etadi. Shu bilan birga, analitik fikrlash (70 foiz), kreativ fikrlash, moslashuvchanlik va umrbod o'rganish kabi insoniy ko'nikmalar ham yetakchi o'rinlardan birini egallaydi.

² [1], [3] manbalarga tayangan holda muallif ishlanmasi

³ [1], [3] manbalarga tayangan holda muallif ishlanmasi



Tizimli tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, texnologik omillar — SI, avtomatlashtirish va raqamli transformatsiya — mehnat unumdorligini 2–3 baravargacha oshirish salohiyatiga ega. Biroq texnologiyalar o'z-o'zidan yetarli emas, ularni insoniy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirish zarur hisoblanadi. Aks holda, malaka bo'shliqlari kuchayib, ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklarning yuzaga kelish xavfi ortadi. Diagramma texnologik hamda insoniy omillarning o'zaro to'ldiruvchi rolini yaqqol namoyon etadi (2-rasm).



2-rasm. O'zbekistonda mehnat bozorida muammolar ulushi⁴

Ushbu diagramma O'zbekiston mehnat bozorida innovatsion rivojlanishga to'sqinlik qiluvchi asosiy muammolarni tizimli ravishda aks ettiradi. Hududiy nomutanosiblik — Toshkent va sanoatlashgan viloyatlar bilan boshqa hududlar o'rtasidagi keskin tafovut — eng muhim muammolardan biri sifatida ajralib turadi. Malaka yetishmovchiligi ta'lim tizimi va mehnat bozori o'rtasidagi nomutanosiblikdan kelib chiqmoqda, raqamli ko'nikmalarning past darajasi esa Sanoat 4.0 va Sanoat 5.0 talablariga to'liq javob bera olmaslikni anglatadi.

Tizimli tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu uch muammo o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, innovatsion iqtisodiyotga o'tish jarayonini sekinlashtirmoqda. Hududiy nomutanosiblik inson kapitalining samarali taqsimlanishiga to'sqinlik qilayotgan bo'lsa, malaka yetishmovchiligi va raqamli savodxonlikning pastligi xorijiy tajribada muvaffaqiyatli qo'llanilayotgan dual ta'lim hamda raqamli transformatsiya modellarini joriy etishni murakkablashtirmoqda. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun xorijiy tajribalar, xususan Germaniyaning dual ta'lim tizimi va Singapurning Smart Nation modeli asosida kompleks strategiyani ishlab chiqish zarur hisoblanadi.

Tahlil natijalari malaka yetishmovchiligi, ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi nomutanosiblik, raqamli ko'nikmalarning pastligi hamda hududiy tafovutlar asosiy to'siqlar ekanligini ko'rsatdi. Germaniyaning dual ta'lim modeli va Singapurning "Smart Nation" dasturi O'zbekiston uchun eng mos tajribalardan biri sifatida baholanmoqda. Shu bois dual ta'lim tizimini raqamli platformalar bilan integratsiyalashgan holda qo'llash, ya'ni "dual + raqamli model"ni joriy etish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, Xitoy tajribasidan keng ko'lami investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini, AQSh tajribasidan esa venture kapital tizimini moslashtirish imkoniyati mavjud.

Global tendensiyalar va xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, innovatsion iqtisodiyotda inson kapitali hal qiluvchi omil hisoblanadi. Nazariy jihatdan mehnat resurslarini tizimli boshqarish mehnat unumdorligi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi. Amaliy jihatdan esa O'zbekiston "O'zbekiston–2030" strategiyasi doirasida xorijiy modellarni integratsiya qilish orqali malaka bo'shliqlarini qisqartirishi hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishi mumkin. Mazkur tadqiqot mavjud ilmiy adabiyotlardagi bo'shliqlarni to'ldirib, milliy siyosatni takomillashtirish uchun muhim ilmiy-amaliy asos yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot innovatsion iqtisodiyot sharoitida mehnat resurslaridan samarali foydalanishning nazariy va amaliy asoslarini tahlil qilib, AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya, Singapur va Xitoy tajribalarini qiyosiy jihatdan o'rgandi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, sun'iy intellekt, avtomatlashtirish, gig iqtisodiyoti, raqamli transformatsiya va yashil iqtisodiyot mehnat bozorini tubdan o'zgartirmoqda. Future of Jobs Report 2025ga ko'ra, 2030-yilga

4 [21], [22] manbalar asosida muallif ishlanmasi



qadar 170 million yangi ish o'rnini yaratilishi kutilmoqda. Biroq texnologik o'zgarishlar malaka bo'shliqlarining kuchayishiga ham olib kelishi mumkin.

Qiyosiy tahlil Germaniyaning dual ta'lim modeli, AQShning startap va venture kapital tizimi, Singapur hamda Janubiy Koreyaning innovatsion klasterlari, shuningdek Xitoyning Made in China 2025 strategiyasi yuqori samaradorlikka ega ekanligini tasdiqladi. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida inson kapitali texnologiyalardan ustun turuvchi hal qiluvchi omil bo'lib qolmoqda. Texnologik omillar mehnat unumdorligini 2–3 baravargacha oshirishi mumkin, biroq ularni moslashuvchanlik, kreativ fikrlash va umrbod o'rganish kabi insoniy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirmasdan barqaror rivojlanishga erishish qiyin.

Tadqiqot O'zbekiston mehnat bozorida quyidagi tizimli muammolar mavjudligini aniqladi:

1. Malaka yetishmovchiligi — ish beruvchilarning yarmidan ortig'i tegishli mutaxassislarni topishda qiyinchilikka duch kelmoqda, chunki ta'lim tizimi mehnat bozori talablariga yetarli darajada moslashmagan.

2. Ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi nomutanosiblik — nazariy bilimlar amaliy ko'nikmalardan ajralib qolgan.

3. Raqamli ko'nikmalarning past darajasi — aholining asosiy raqamli savodxonlik ko'rsatkichlari past bo'lib, Sanoat 4.0 va Sanoat 5.0 talablariga moslashishni cheklamoqda.

4. Hududiy nomutanosiblik — mintaqalar o'rtasidagi keskin tafovutlar, xususan Toshkentda NEET ko'rsatkichlarining nisbatan past, ayrim viloyatlarda esa yuqori darajada bo'lishi inson kapitalining notekis taqsimlanishiga sabab bo'lmoqda.

5. Innovatsion infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi — startap ekotizimi va venture kapital tizimi hali ham zaifligicha qolmoqda.

Xorijiy tajribani milliy sharoitlarga moslashtirish asosida quyidagi strategik choralarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

1. Ta'lim tizimi — Germaniyaning dual ta'lim modelini keng miqyosda joriy etish, oliy va kasb-hunar ta'limini ishlab chiqarish bilan chuqur integratsiya qilish hamda umrbod o'rganish tizimini milliy qonunchilikda mustahkamlash.

2. Raqamli iqtisodiyot — sun'iy intellekt va raqamli ko'nikmalarni majburiy ta'lim standartlariga kiritish, Singapurning Smart Nation strategiyasi elementlarini qo'llash, milliy raqamli platformalarni yaratish hamda IT-mutaxassislar tayyorlash hajmini ikki baravar oshirish.

3. Mehnat bozori — gig iqtisodiyotini huquqiy jihatdan tartibga solish, platforma bandligini rivojlantirish va davlat-xususiy sheriklik asosida yangi yuqori malakali ish o'rinlarini yaratish mexanizmlarini joriy etish.

4. Innovatsion infratuzilma — innovatsion klasterlar va texnoparklarni rivojlantirish, AQSh tajribasidan foydalanib venture kapital fondlarini kengaytirish hamda Xitoy modeli asosida davlat investitsiyalarini texnologik va yashil sohalarga yo'naltirish.

5. Hududiy rivojlanish — hududlar o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirish maqsadida inson kapitalini hududiy balanslash dasturlarini ishlab chiqish va mahalliy innovatsion markazlar tarmog'ini shakllantirish.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi xorijiy tajribani O'zbekistonning demografik salohiyati, hududiy xususiyatlari hamda "O'zbekiston–2030" strategiyasi bilan chuqur integratsiya qilgan kompleks qiyosiy yondashuvda namoyon bo'ladi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa milliy mehnat siyosatini takomillashtirish, strategik dasturlar ishlab chiqish va iqtisodiy o'sishni barqarorlashtirish jarayonlarida bevosita qo'llanishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion iqtisodiyot sharoitida mehnat resurslaridan samarali foydalanish inson kapitalining sifati, moslashuvchanligi va uzluksiz rivojlanishiga bog'liq. Xorijiy tajribani muvaffaqiyatli moslashtirish O'zbekistonni global raqobatbardosh, inklyuziv va barqaror iqtisodiyotga aylantirishning muhim omili hisoblanadi. Kelgusidagi tadqiqotlar hududiy darajada amaliy modellarni sinovdan o'tkazish hamda sun'iy intellekt ta'sirining uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini chuqur baholashga qaratilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. World Economic Forum. (2025, January). Future of Jobs Report 2025: Insight Report.
2. Kristelle Razon. (2025, January 10). AI-tech trends to redefine job markets, impact workforce skills in 2025–2030.
3. McKinsey Global Institute. (2025). Agents, Robots, and Us: Skill Partnerships in the Age of AI. McKinsey & Company.
4. World Bank. (2025). Uzbekistan: Bold Push Unlocking Jobs and Prosperity. [World Bank Report](#)
5. Akbarova M.. (2026). Analysis of International Experience in Increasing the Employment Rate of the Population in Uzbekistan. Latin American Journal of Education, 6(1), 780–792.
6. Sarbu M.. (2022). The Impact of Industry 4.0 on Innovation Performance: Insights from German Manufacturing and Service Firms. Technovation, 113, Article 102438.
7. Bettiol M., Capestro M., Di Maria E. va boshq. (2024). Is This Time Different? How Industry 4.0 Affects Firms' Labor Productivity. Small Business Economics, 62, 1449–1467.
8. Zhu M., Liang C., Yeung A. C. L., & Zhou H.. (2024). The Impact of Intelligent Manufacturing on Labor Productivity: An Empirical Analysis of Chinese Listed Manufacturing Companies. International Journal of Production Economics, 267, Article 109070.



9. Grybauskas A., Stefanini A., & Ghobakhloo M.. (2022). Social Sustainability in the Age of Digitalization: A Systematic Literature Review on the Social Implications of Industry 4.0. *Technology in Society*, 70, 101997.
10. Rikala P., Braun G., Järvinen M., Stahre J., & Hämmäläinen R.. (2024). Understanding and Measuring Skill Gaps in Industry 4.0: A Review. *Technological Forecasting and Social Change*, 201, 123206.
11. Kuo C.-C., Shyu J. Z., & Ding K.. (2019). Industrial Revitalization via Industry 4.0: A Comparative Policy Analysis among China, Germany and the USA. *Global Transitions*, 1, 3–14.
12. Fraske T.. (2022). Industry 4.0 and Its Geographies: A Systematic Literature Review and the Identification of New Research Avenues. *Digital Geography and Society*, 3, 100031.
13. World Economic Forum. (2026, January). *Youth Pulse 2026: Insights from the Next Generation for a Changing World (Insight Report)*.
14. Ciano M. P., Peron M., Panza L., & Pozzi R.. (2025). Industry 4.0 Technologies in Support of Circular Economy: A 10R-Based Integration Framework. *Computers & Industrial Engineering*, 201, 110867.
15. Qo'chqorov G'. F.. (2026). Mehnat resurslari shakllanishining sifatini oshirish yo'nalishlari. *Ekonomika i sotsium*, 1(140–1).
16. Abdullayeva F.. (2024). Inson kapitali va innovatsion rivojlanish o'rtasidagi munosabatlar tahlili. *Образование. Наука и инновационные идеи в мире*, 56(4), 115–117.
17. Artiqova O'. Z., & Qodirova N.. (2025). Raqamli iqtisodiyot sharoitida aholining iqtisodiy savodxonligini oshirishning xorij tajribasi. *Management, Marketing and Finance. International Scientific Journal*, 2(3), 33–37.
18. OECD. (2025). *OECD Compendium of Productivity Indicators 2025*.
19. Visual Capitalist. (2025). *Ranked: Productivity of the World's Largest 30 Economies (2005–2025)*.
20. World Bank. (2025). *Uzbekistan Country Economic Memorandum*.
21. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish vazirligi. (2025).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
